

“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Sport vazirligi huzuridagi
Jamoatchilik kengashi raisi



Sh.R. Tashmatov

“ ” mart 2026 yil

O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligi huzuridagi
Jamoatchilik kengashi yig‘ilishining
4 – son bayoni

2026 yil **18** mart

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi:

Sh.R. Tashmatov – O‘zbekiston milliy olimpiya
qo‘mitasi raisi o‘rinbosari, *jamoatchilik kengashi*
raisi

Qatnashdilar:

vazirlik huzuridagi jamoatchilik kengashi a‘zolari,
sport vazirligi markaziy apparati boshqarma va
bo‘lim boshliqlari (*ro‘yxat bo‘yicha*)

kun tartibi:

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Sport maktablari faoliyatini
tizimli tashkil etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori loyihasi
to‘g‘risida.**

(*Tashmatov, Maxsitov, Tadjiyev, Ergashev, Rafiev, Kerimov, Agzamov, ..., Tashmatov*)

Qayd etildiki, Sport vazirligining 2026-yil 9-martdagi **“O‘zbekiston Respublikasi
Sport vazirining 2024-yil 12-sentabrdagi 01/1366-A/F-son buyrug‘iga o‘zgartirish
kiritish to‘g‘risida”gi 01/169-A/F-son buyrug‘iga muvofiq, Jamoatchilik kengashining
yangi tarkibi tasdiqlandi.**

Sport maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish, xususiyl sport klublari hamda
mahallalarda sport to‘garaklarini tashkil etgan trenerlarning yoshlarni muntazam sport bilan
shug‘ullantirish borasidagi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida Vazir ar
Mahkamasining **“Sport maktablari faoliyatini tizimli tashkil etishning qo‘shimcha
chora-tadbirlari to‘g‘risida”** qarori loyihasi ishlab chiqilganligi takidlab o‘tildi.

Mazkur qaror loyihasi bilan sport maktablari xodimlarining bazaviyl tarif stavkasiga
ommaviyl sportni rivojlantirish va seleksiya ishlari hamda ko‘rsatgan sport natijalari uchun
har oyda to‘lanadigan ustamalar miqdori, mahallalarda sport to‘garaklarini tashkil etgan

holda, o'zini o'zi band qilgan trenerlarni sport maktabiga biriktirish hamda ularni rag'batlantirish tartibi taklif etilayotganligi aytiladi.

Jumladan:

- har kalendar yil yakuniga qadar hududlarning o'ziga xos xususiyatlari, aholining qiziqishlari, shuningdek, erishilgan sport natijalari hamda mavjud sport infratuzilmasini tahlil qilgan holda, sport turlariga ixtisoslashtiriladigan sport maktablari ro'yxati va ularda rivojlantiriladigan sport turlari qayta ko'rib chiqilishi;

- sport maktablari xodimlarining bazaviy tarif stavkasiga ommaviy sportni rivojlantirish va seleksiya ishlari hamda ko'rsatgan sport natijalari uchun har oyda qo'shimcha ustamalar to'lab borilishi;

- sport maktabiga biriktirilgan o'zini o'zi band qilgan trenerlar tegishli moliya yili uchun sport maktabiga ajratilgan mablag'lar doirasida ijtimoiy buyurtmani bajarish sharti bilan, sport maktabi treneri uchun belgilangan bazaviy tarif stavkasi miqdorida rag'batlantirib borilishi taklif etilmoqda.

Bundan tashqari, o'zini o'zi band qiladigan shaxslar uchun faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari ro'yxatiga "mahallalarda sport to'garaklarini tashkil etgan trenerlar" faoliyat turi sifatida kiritiladi.

Muhokama davomida **mahallalarda** sport to'garaklarini tashkil etgan o'zini o'zi band qilgan trenerlarni sport maktablariga biriktirish va ularni rag'batlantirish mexanizmi aholini, ayniqsa yoshlarni sportga keng jalb qilish hamda mahallalarda sport to'garaklari faoliyatini rivojlantirish uchun muhim imkoniyat yaratishi ta'kidlandi.

Bunda mahallalarda faoliyat yuritayotgan **trenerlarni sport maktablariga biriktirishda** ularning malakasi, to'garaklardagi sportchilar soni, mashg'ulotlarni tashkil etish imkoniyatlari va erishilgan natijalarni inobatga olish maqsadga muvofiqligi qayd etildi.

Shu bilan birga, qaror loyihasi tartibiga muvofiq, sport to'garaklarida shug'ullanayotgan sportchilarni "**ERP-sport**" tizimida ro'yxatdan o'tkazish orqali ularning qamrovi va mashg'ulot jarayonini **elektron hisobga** olish imkoniyati yaratilayotganligi ijobiy baholandi.

Jamoatchilik kengashi a'zolari tomonidan sport maktablarini muayyan sport turlariga **ixtisoslashtirishda** faqat mavjud sport inshootlarini emas, balki hududda ushbu sport turiga bo'lgan qiziqish, aholi va yoshlar qamrovi, trenerlar salohiyati, mavjud natijalar hamda kelgusida sport turini rivojlantirish imkoniyatlarini ham **kompleks baholash** zarurligi bildirildi.

Muhokamada sport maktablarida ommaviy sport va seleksiya ishlarini kuchaytirish, iqtidorli yoshlarni erta aniqlash va ularni yuqori natijalar sportiga yo'naltirishda **trener-seleksionerlar** faoliyatining aniq natijadorlik ko'rsatkichlari asosida baholanishi muhimligi ta'kidlandi.

Shuningdek, sport maktablari xodimlariga qo'shimcha ustamalar belgilashda ommaviy sport qamrovi bilan bir qatorda seleksiya ishlarining samaradorligi va sportchilar tomonidan erishilgan natijalarni ham **xolis baholash mexanizmlarini ta'minlash** yuzasidan takliflar bildirildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan bildirilgan taklif va mulohazalar, shuningdek jamoatchilik kengashi a'zolarining muhokamalaridan kelib chiqib, yig'ilish

qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **"Sport maktablari faoliyatini tizimli tashkil etishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"**gi qarori loyihasi mazmuni va unda belgilangan vazifalar ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

a) sport maktablarini muayyan **sport turlariga ixtisoslashtirishda** hududning sport infratuzilmasi, aholi qiziqishi, mavjud sport natijalari, trenerlar salohiyati va sport turini rivojlantirish imkoniyatlarini **kompleks baholash**;

b) sport maktablarida ommaviy sport va seleksiya ishlarini samarali tashkil etish, **trener-seleksionerlar** faoliyatini aniq natija ko'rsatkichlari asosida baholash;

v) mahallalarda sport to'garaklarini tashkil etgan o'zini o'zi band qilgan trenerlarni sport maktablariga biriktirish jarayonini **ochiq va shaffof** tashkil etish;

g) sport to'garaklarida shug'ullanayotgan sportchilarni **"ERP-sport"** tizimida ro'yxatdan o'tkazishni ta'minlash;

d) sport maktablari xodimlariga **to'lanadigan qo'shimcha ustamalarni belgilash** va ommaviy sport qamrovi, seleksiya ishlari va sport natijalarini kompleks baholash mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish tavsiya etilsin.

3. Sport maktablariga biriktiriladigan o'zini o'zi band qilgan trenerlarning faoliyatini samarali tashkil etish, ular tomonidan tashkil etilgan sport to'garaklarida o'quv-mashg'ulot jarayonlarining sifatli olib borilishi hamda sportchilarning yagona elektron tizimda hisobini yuritish masalalariga **alohida e'tibor** qaratilishi tavsiya etilsin.

4. **Jamoatchilik kengashi tomonidan** qaror tasdiqlangandan keyin sport maktablarini ixtisoslashtirish, mahallalarda sport to'garaklarini tashkil etish, aholini sportga jalb qilish va iqtidorli sportchilarni seleksiya qilish **natijalari o'rganib borilsin**.

5. Sport vazirligining **mas'ul tarkibiy bo'linmalari tomonidan** mazkur qarorda belgilangan vazifalar ijrosining borishi va natijalari yuzasidan jamoatchilik kengashiga **axborot kiritib borilsin**.

Yig'ilish kotibi



N. Salomov

**Sport vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining
TARKIBI**

T/r	F.I.O	—	Lavozimi
JAMOATCHILIK KENGASHI RAISI			
1.	TASHMATOV Sherzod Rixsibaevich	—	Milliy Olimpiya qo'mitasi raisi o'rinbosari, Taekvondo WT assotsiatsiyasi raisi
JAMOATCHILIK KENGASHI A'ZOLARI			
2.	MAXSITOV Baxodir Maxsitovich	—	O'zbekiston Sport faxriylari Kengashi raisi
3.	JURABOYEV Ibrohimjon Ilhomjon o'g'li	-	O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi Kengashi raisining birinchi o'rinbosari
4.	TASHMATOV Xikmat O'razali o'g'li	-	O'zbekiston Milliy paralimpiya qo'mitasi raisi o'rinbosari
5.	TOJIYEV Bahodir Muhiddinovich	—	O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi boshqarma boshlig'i
6.	RAFIEV Hamroqul Tolibovich	—	Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali professori
7.	ESHTAYEV Anvar Kurganovich	—	O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti professori
8.	KERIMOV Fikrat Azizovich	—	Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti professori
9.	AGZAMOV Bilol Xilalovich	—	Respublika o'smirlar oliy sport mahorati maktabi direktori
10.	ADISMAN Dmitriy Aleksandrovich	—	O'zbekiston Maxsus Olimpiadasi raisi
11.	SAYDULLAYEV Mirjalol Rustam o'g'li	—	Milliy Olimpiya qo'mitasi Olimpiya sport turlari faoliyatini koordinatsiya qilish departamenti direktori v.v.b
12.	XIDIROV Davron Akramovich	-	O'zbekiston Karlar sport federatsiyasi raisi
13.	ERGASHEV Otabek Maxmudovich	—	O'zbekiston ko'zi ojizlar sport federatsiyasi raisi
14.	IZRAILOVA Galina Vyacheslavona	—	O'zbekiston Gimnastika federatsiyasi ijrochi direktori
15.	KARABAYEV Murodjon Abduraxmanovich	—	O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi Ijro nazorati va axborot tahlil bo'limi boshlig'i

16.	MIRZAKULOV Baxtiyor Choriyevich	—	O'zbekiston huquqni muhofaza qilish organlarining qo'riqchilik federatsiyasi raisi o'rinbosari
17.	MAMADALIYEV Abror Akbarjonovich	—	Respublika olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi direktori
JAMOATCHILIK KENGASHI KOTIBI			
18.	SALOMOV Nurbek Normurodovich	-	Sport vazirligi Axborot xizmati rahbari